



## XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING QARORI

YANGI TOMDI QURG'ONI +998 94 375 1465 r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2025-yil 18-yanvar

VII-4-2-5-75-K/25

Tomdi tumani

### **Tomdi tuman bo'yicha 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymatni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasi respublika hududlari kesimida **1 kv.metr** va **1 gektar** uchun mutlaq o'lchamda belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig'i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilashi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda soliq inspeksiyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning 2025-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i stavkalari, uchun kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Yuqoridagilarni inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan 2025-yilda shahar bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutloq miqdori **1 gektar** uchun 39 600 000 so'm, jismoniy shaxslar yerlarining **1 kv.m** uchun bazaviy soliq stavkasi mutloq miqdori 352 so'm qiymati ma'qullansin.

**2.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Abdimalikov), tuman soliq inspeksiyasi (Q.Xolmuminov)ning:

hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda shaharning kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib shahar bo'yicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutloq miqdorlariga hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'yektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

**3.** Tumanning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar bo'yicha 2025-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig'i stavkasi **1-ilovaga**, yuridik shaxslar bo'yicha 2025-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig'i stavkasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashiga 2025-yilning 24-dekabriga qadar keying soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalarini belgilangan tartibda soliq organlariga kirisin.

5. “Tamdi sharuageri” gazetasi (M.Samatov), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (N.Ametov)ga:

tuman bo‘yicha 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hamda mol-mulk solig‘ini hisoblashda qo‘llaniladigan eng kam qiymat bo‘yicha ma‘lumotlarni “Tamdi sharuageri” gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytida e‘lon qilsin.

6. Xalq deputatlari Tomdi tuman Kengashining 2024 yil 5 yanvardagi “Tomdi tumanida 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-64-1-5-75-K/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari va xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



UMAROV  
ORZUMUROD  
FAYZULLAYEVICH

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
Kengashining  
2025-yil 18-yanvardagi  
VII-4-2-5-75-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon ho'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq ho'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlar**

*1 kv uchun so'mda*

Xudud nomi	MFY	2025 yil uchun		
		Tuman uchun Viloyat kengashining bazaviy stavkasi	tuman XDK koyeffisiyent	soliq stavkasi
<i>A</i>	<i>I</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
Tomdi tumani	Shiyeli OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Keregetau OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Sukitti OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Muruntau MFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Keriz OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Ayakkuduk OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Aktau OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	“Sharq” Bog‘dorchilik shirkati OFY	352	1,10	387,20
Tomdi tumani	Tomdibulok OFY	352	1,10	387,20

**Izoh:** Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini ovul fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,5-2,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koyeffisiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Tomdi tumani  
Kengashining  
2025-yil 18-yanvardagi  
VII-4-2-5-75-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

**2025 yil Tomdi tumani hududlarini iqtisodiy rivojlantirishga qarab qishloq  
ho‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq  
miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va  
oshiruvchi koyeffisiyentlar**

*1 kv uchun so‘mda*

№	Tuman	Maxala nomi	2025 yil uchun		
			Tuman uchun viloyat kengashining bazaviy stavkasi	Tuman XDK koyeffisiyent	Yer solik summasi
<i>A</i>	<i>1</i>	<i>2</i>		<i>4</i>	<i>5</i>
1	Tomdi tumani	Shiyeli OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
2	Tomdi tumani	Keregetau OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
3	Tomdi tumani	Sukitti OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
4	Tomdi tumani	Muruntau MFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
5	Tomdi tumani	Keriz OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
6	Tomdi tumani	Ayakkuduk OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
7	Tomdi tumani	Aktau OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0
8	Tomdi tumani	“Sharq” Bog‘dorchilik shirkati OFY	39 600 000,0	1,1	43 560 000,0
9	Tomdi tumani	Tomdibulok OFY	39 600 000,0	0,9	35 640 000,0

**Izoh:** tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini ovul fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,5-2,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koyeffisiyentlarni belgilash huquqiga ega.